



BOSHLANG'ICH SINFDA AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA LOYIHA

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi
kafedrası mudiri i.f.d DSc, dotsent, fan o'qituvchisi
Farruxbek0209@mail.ru; orcid.org/0000-0002-4574-7728

Jumayeva Go'zal Hayriddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika insituti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi. 1-kurs magistranti
ggjdsss90@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18261156>

ARTICLE INFO

Received: 13st January 2026

Accepted: 14th January 2026

Published: 15th January 2026

KEYWORDS

Axborot xavfsizligi, ta'lim
jarayoni, interfaol metodlar,
axborot texnologiyalari,
xavfsizlik choralari, jamiyat
hayoti

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda axborot xavfsizligi madaniyatini qay tarzda shakllantirish mumkinligi haqidagi g'oyalarni tahlil qilib, targ'ib qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga axborot texnologiya vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayoniga nechog'lik foydali yoki xavfli ekanligiga razm solamiz. Qanday interfaol metodlar orqali axborot texnologiyalaridan foydalanish va xavfsizlik choralari oson o'rgatish usullarini o'rganamiz. Bundan tashqari texnologiyalardan noo'rin foydalanish bizga qanchalik darajada muammolar tug'dirishini ko'rib chiqamiz. Hamda, axborot xavfsizligi madaniyati bugungi rivojlangan jamiyatimiz insonlari hayotida qay darajada muhim o'rin tutishi haqida so'z yuritamiz. Bu maqolamiz boshlang'ich sinf o'qituvchilari va metodistlari uchun manfaatli bo'ladi.

Biz rivojlanish asrida yashayabmiz. Raqamli texnologiya shu darajada shiddat bilan bilan rivojlanmoqdaki, hayotimizning har jabhasiga kirib ulgurdi va ajratib bo'lmas qismiga aylanib ulgurdi. Hozirda tevarak atrofimizdagi barcha vositalar texnologiya mahsuli deb bemalol ayta olamiz. O'tmish bilan bugungi kunni taqqoslaydigan bo'lsak, ko'plab tafavvutlarga guvoh bo'lamiz. Masalan, o'tmishda insonlarning jismoniy hayot tarzi va aqliy, ya'ni ta'lim jarayonlari bugungi kundagi qadar qulay emas edi. Ma'lumot almashinuvi ham hozirgidan ancha farqli edi. Kunimizda raqamli texnologiyalar orqali hayotimizga anchayin yengilliklar kirib kelgan. Hatto, boshlang'ich sinf o'quvchilari ham hozirda axborot texnologiyalaridan mustaqil foydalanishmoqda. Quyida, farzandlarimiz raqamli olamda xavfsiz bo'lishlari uchun nimalarga diqqat qaratishimiz va ularga qanday metododlar orqali yo'l ko'rsatishimiz kerakligi haqida so'z yuritamiz.

Biz barchamiz axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrdamiz va bu farzandlarimiz kichik yoshdayoq axborot vositalaridan foydalanishlariga zamin yaratadi. Ammo, ular

axborotlardan qanday usulda xavfsiz foydalanish kerakligi haqida tushunchaga ega emaslar. Bizning vazifamiz esa, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishdir.

1.Yurtboshimiz ham bu masalaga o'z diqqatlarini qaratganlar. UzDaily.com saytidagi „Uzbek President calls for reform in teacher education and child online safety“ maqolasida shunday deganlar: „Taxminan 80 foiz maktab o'quvchilari internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishadi. Shu bilan birga, yoshlar uchun zararli kontent mavjudligi muammosi hanuz mavjut. Shu sababli hukumatdan yoshlar uchun xavfsiz axborot muhitini kuchaytirish, milliy kontentni ko'paytirish va shu yo'nalishda mehnat qilayotgan ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashni talab qilaman“.

Darhaqiqat, yurtboshimiz tomonidan e'tirof etilgan bu fikrlar, bolajonlarimiz kelajagi uchun juda muhim. Bugungi kunda zamonamiz yoshlari ijtimoi tarmoqlardan foydalanadi va u yerdagi turli shaxslar yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishlari juda oson hisoblanadi. Shuning uchunham bolalarga mo'ljallangan xavfsiz axborot muhitini yaratish muhim deb o'ylayman. Bu yo'nalishda ish olib borishi ko'zda tutilgan kadrlarni puxta bilim va ko'nikmalar bilan shakllantirishimiz lozim. Bundan tashqari ularning ish faoliyati uchun kerakli shart-sharoitlarni hamda moddiy yondan yetarli darajada ta'minlab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina biz kutgan xavfsiz axborot tizimi shakllanadi.

2. Boshlang'ich sinflarda axborot xavfsizligini shakllantirish asrimizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu mavzuda dunyo olimlari ham o'z fikrlarini ilgari surishgan.

2.1 Sonia Livingstone- Children and the internet (2002)

S.Livingstone bolalar axborot dunyosida faol ishtirok etganliklari boisi bolalarda media-savodxonlik va onlayn xavfsizlik ko'nikmalari erta yoshdan boshlab shakllantirish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Uning fikriga ko'ra erta yoshda bolalarni faqatgina himoyalab qolmay, o'zlari mustaqil qaror qabul qilishlariga, hatolarini tushunib, to'g'ri bo'lgan ma'lumot va harakatlarni o'z tajribalari orqali anglab yetishlariga o'rgatish lozim. Shu o'rinda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqillikni o'z chegaralari bilan o'rgatish kerak deb o'ylayman. Dars davomida pedagog bunday vaziyatlarni bolalarga tushunarli bo'lishi uchun hayotiy misollar, qiziqarli o'yinlar va sahna ko'rinishlari orqali yetkazib berishi kerak. Har ishda me'yor bo'lishi va axborot madaniyati qoidalariga rioya etmaslik nimalarga olib kelishini qisqacha reallik bilan ifoda etilishi lozim. Chunki, bolalar shunchaki eshitish emas, ko'rish orqali hotiralarida mustahkamlaydilar.

2.2 Mike Ribble – Digital Citizenship in Schools (2007-2015) M. Ribble maktablar uchun „Raqamli fuqarolik“ ning elementlarini aniq ramkaga soldi. O'zining „ 9 element “ modeli va amaliy mashqlari bolalarda axborot xavfsizligini o'rgatishda juda foydali. Uning fikricha axborot xavfsizligi raqamli dunyoda diqqatga sazovor nuqta. Bolalar o'z ma'lumotlarini asrash, xavfsiz parol yaratish, axborot xavfsizligi madaniyatiga amal qilish qoidalarini erta yoshdan o'rganishlari zarur. Albatta, bolalar o'z shaxsiy ma'lumotlarini parollar orqali himoya qiladilar. Ammo erta yoshda ular bu bilimlarga ega bo'lishmaydi. Bizdan talab etilgani esa, ularga bu ma'lumotlarni to'liq shakllantirishimiz, kiberxavfsizlik haqida tushuncha uyg'otishimizdir.

Bu mavzuda Hellen Nissenbaumning ham o'z nazariyalari mavjud. „Kontekstual integritet“ (2010) nazariyasida mavzuimizga oid so'z yuritiladi. H. Nissenbaumning fikricha, har qanday turdagi axborotlarning himoyalaniishi, uni qaysi kontekstda, kimga va qanday sharoitda taqdim etilishiga bog'liq. Bu nazariyani bolalarga qisqa va soda hayotiy qisqa misollar bilan interfaol metodlar bilan tushuntirib bersak bo'ladi. Ya'ni, yashash manzili, shaxsiy ma'lumotlarni faqat

tanishlarga (ota-ona, qarindoshlar va o'qituvchilar) aytish mumkinligi, axborot vositalaridan foydalanganda ham diqqatli bo'lish kerakligi haqida bolalarda erta yoshdan tasavvur uyg'otishimiz darkor. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf darsliklarida „Tarbiya“, „Informatika“ fanlarida axborot xavfsizligi madaniyatiga taalluqli mavzular joy olmoqda. Biz pedagoglar esa, bu materiallarni yanada boyitib, o'quvchilarga tushunarli tarzda ularga yetkazib berishimiz shart deb hisoblayman.

3. Bu kabi dolzarb mavzuni o'zbek olimlari ham e'tibordan chetda qoldirishgani yo'q. Masalan, Akramjon Karimov o'zining „Raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarning axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetini ta'lim jarayonlari orqali shakllantirish“ (2025) maqolasida bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatish kerakligi va bu masalalar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bolalarda erta yoshdan kiberxavfsizlikka qarshi immunitet shakllanmagan bo'ladi. Ularni o'qitish davomida biz bu immunitetni rivojlantirib olamiz. Buning uchun, axborot xavfsizligiga oid bilimlarni chuqurlashtirib o'rgatishimiz darkor.

Axborot vositalari hayotimizni juda qulaylashtirdi. Ularning samaradorligi insonlar vaqtini tejashga va bir vaqtning o'zida bir nechta ishlarni bajarishlariga ko'maklashmoqda. AT vositalari ta'lim va biznes sohasida shiddatli rivojlanishni yuzaga keltirdi. Tibbiyotda ham AT vositalari insonlarga yordamchi bo'lib ulgurdi. Ammo, tanganing ikki yoni bo'lgani kabi, AT vositalarining ham salbiy jihatlari mavjud. Avvalo, insonlar o'rtasidagi samimiyatning kamayishi, shaxslarda turli zararli va madaniyatsiz illatlarning paydo bo'lishi, yoshlarda nosog'lom dunyoqarash va firibgarlik harakterlarining yuzaga kelishi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari AT vositalarini axborot xavfsizligi madaniyati qoidalari va huquqiy ijtimoiy jihatdan qay tartibda foydalanish kerakligini bilmagan holda ishlatganimizda o'zimiz va atrofdagilarga jiddiy zarar yetkazishimiz mumkin. Deylik, shaxsiy profilimizni parollashda diqqatsizlik qilsak, biror ma'lumot kerak bo'lganda xavfli saytlarga ulanib qolsak yoki ko'chada turli notanish internet tarmoqlariga ulanib ulardan foydalansak biz uchun juda xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun erta yoshdayoq AT vositalaridan foydalanish qoidalarini puxta o'rganish talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, sergaklik davr talabi. Taraqqiy etgan davrda biz sergak turmas ekanmiz, jamiyatimiz tanazzulga yuz tutishi mumkin. Yosh va beg'ubor avlodni diqqat bilan ulg'aytirish bizning eng ulug' vazifamizdir. Ularga sergaklik, uyg'oqlik va har ishga ma'suliyat bilan yondashish davr talabi ekanligini uqtirishimiz lozim. Zero, ularning samimiyatidan g'araz maqsadlarda foydalanish istagida bo'lganlar talaygina. AT vositalarining rivojlanishi bunday shaxslar uchun ayni muddao bo'lishiga biz yo'l ochib bermasligimiz lozim. Yosh avlodni ham manan, ham jismonan yetuk qilib tarbiyalasak, maktablarda dars jarayonlarida ularga AT vositalari xavfsizligi madaniyati, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy bilimlarni izchil o'zlashtirishlari uchun imkoniyatlar yaratib bersak vatanimiz kelajagi porloq bo'lishi uchun o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz deb o'ylayman.

References:

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.

2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashirish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.
10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.
11. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES." RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI (2022).
12. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Бизнес-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
13. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
14. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).
15. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA NOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).
16. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).
17. Qodirov, Farrux. "MASOFAVIY TA'LIMDA MOODLE. TUITKF. UZ PLATFORMASINING O'RNI VA AHAMIYATI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ (2020).

18. Qodirov, Farrux. "RASPBERRY PI QURILMASINING TEXNIK XUSUSIYATLARI VA UNING IMKONIYATLARI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
19. Qodirov, Farrux. "PROTECTING WEBSITES FROM VARIOUS ATTACKS." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
20. Кодиров, Ф. "PROTSESS RAZRABOTKI IGROVOGO DVIJKA UNITY." Scienceweb academic papers collection (2019).

